

AXBOROT-RESURS MARKAZI

Axborot-resurs markazi boshlig'i **podpolkovnik Anvarov Sherali Qurbonalievich**.

Axborot-resurs markazining maqsadi an'anaviy kutubxona xizmatidan va axborot texnologiyalardan foydalangan holda foydalanuvchilarning mustaqil ravishda ta'lim olishiga ko'maklashish, kitobxonlarning ma'rifiy, ma'naviy, madaniy dunyoqarashini shakllantirish, ularga milliy istiqlol g'oyasi mazmunini singdirish, siyosiy, me'yoriy-huquqiy madaniyat asoslarini tushuntirish va huquqiy ongini o'stirish, ularning kasbiy va xizmat malakasini oshirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida axborot-kutubxona resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlashdan iborat.

Axborot-resurs markazining vazifalari:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Qonunlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, davlat arboblarning asarlari, ichki ishlar idoralari sohaviy xizmatlarining ilg'or tajribalari va ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini targ'ib qilishda kutubxona faoliyatining barcha shakl va usullarini qo'llash;
- foydalanuvchilarni o'quv, maxsus va badiiy adabiyotlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq ta'minlash maqsadida ularning kitobxonlik qiziqishlarni o'rganish va ko'rgazmalar tashkil etish; o'quv xonasida yakka tartibda va guruhlar bo'yicha xizmat ko'rsatish metodlarini qo'llangan holda, foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishni tashkil etish;
- o'quv va badiiy adabiyotlar seksiyalari faoliyatini elektron katalog «ARMAT» dasturidan foydalangan holda yuritishni tashkillashtirish;
- elektron axborot resurslarini to'plash, tizimlash, kataloglashtirishni amalga oshirish;
- ARM fondini yangi nashriyotlar bilan to'ldirish, kutubxona fondini yangi nashr etilgan ixtisoslikka, qonunchilikka oid va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirib borish ishlarini amalga oshirish.

ARM FAOLIYATI

ARM xizmat faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining hamda Institutning tegishli buyruq va ko'rsatmalariga ko'ra «Axborot-resurs markazi to'g'risida»gi Nizomga asosan amalga oshiradi.

ARMda o'zaro lokal tarmoqqa birlashtirilgan zamonaviy kompyuterlar asosida Elektron kutubxona tashkil etilgan. Elektron resurslardan foydalanishni tashkillashtirish borasida «ARMAT» (Axborot-resurs markazining avtomatlashtirilgan tizimi) dasturiy ta'minoti joriy etilib, undan samarali foydalanish yo'lga qo'yilgan. Jumladan, 8000 dan ortiq ta'lim sohasiga oid elektron manba (darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma, ilmiy, doktorlik dissertatsiyalari hamda badiiy adabiyot)lar bazasi jamlangan va foydalanish uchun joriy qilingan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «»ZiyoNET» ta'lim axborot tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida ARM elektron kutubxonasida «ZiyoNET» ta'lim axborot tarmog'idan foydalanish yo'lga qo'yilgan bo'lib, Institutda tahsil olayotgan kursantlarning bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlashga poydevor bo'lmoqda. ARMda O'zbekiston Respublikasining 40 dan ortiq, shuningdek, Yong'in xavfsizligi sohasidagi turli xil davriy nashrlariga obuna ishlari yo'lga qo'yilgan.

ARMda Maxsus va Yuridik kutubxonalar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Yuridik kutubxonada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda inson huquqlariga oid jami 2000 dan ziyod kitob va davriy nashrlar yig'ma jildlari mavjud.

HAMKORLIK

ARM IIV Akademiyasi hamda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'ygan.

2016 yilda Institut tomonidan O'zbekiston Milliy kutubxonasi bilan hamkorlikda «EBSCO» Xalqaro axborot-kutubxona tizimiga ulanish ishlari amalga oshirildi. Bu esa Institut xodimlari, tinglovchi va kursantlarining dunyoda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot yo'nalishidagi yangiliklar hamda izlanishlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasidan samarali foydalanishi va bilimlarini yanada mustahkamlashlari uchun xizmat qilmoqda.

ISTIQBOLDAGI REJALAR

Kelgusida ARM tomonidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti, O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasining Toshkent harbiy-texnika instituti ARMLari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish ishlari hamda foydalanuvchilarning badiiy kitoblarga bo'lgan qiziqishlarini inobatga olgan holda respublikamizdagi nashriyotlar bilan hamkorlikda «Kitoblar ko'rgazmalari»ni tashkillashtirish ishlari rejalashtirilgan.

Shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida tashkil etilgan «Axborot-kutubxona sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda uslubiy yordam ko'rsatish bo'yicha» kurslarga ARM xodimlarining malakasini oshirish uchun yuborish ishlari amalga oshirilmoqda.